



GEPATIT VA SERROZ: JIGAR KASILLIKLARINING SABABLARI, ASORATLARI VA DAVOLASH YONDASHUVLARI.

Ashurova Nozima U.

G'ulomov Sh.G'.

Nomozov J.B.

Axatova G.X.

Kimyo international university in Tashkent (KIUT) 2-kurs talabasi
Kimyo international university in Tashkent (KIUT) 2-kurs talabasi
Kimyo international university in Tashkent (KIUT) 2-kurs talabasi
Kimyo international university in Tashkent (KIUT) «Tibbiy-biologik
fanlar» kafedrasi assistenti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18738331>

Gepatit-jigarni yalig'lanishi bilan tavsiflanadigan tibbiy holat bolib, uning asosiysi virusli infeksiyalardan kelib chiqadi. Dunyo boylab gepatitning turli shakillari mavjud bo'lib, bu kasalikni nafaqat sog'liqni yomonlashtiradi, balki iqtisodiy va ijtimoiy hayotga ham katta zarar yetkazadi. Gepatitning asosiy turlari A, B, C, D va E viruslari tomonidan kelib chiqadi, ularning har biri o'ziga xos epidemiologik va klinik xususiyatlarga ega. Ushbu maqolada gepatitning asosiy turlari, uning diagnostikasi, davolash usullari va profilaktikasi haqida so'z yuritamiz.

Gepatitning epidimologik o'ziga xosliklari.

Gepatitning turli shakillari dunyo miqyosida keng tarqalgan bo'lib, ayrim mamlakatlarda bu kasalliklarning tarqalish darajasi yuqori. Misol uchun gepatit A va E asosan rivojlanayotgan mamlakatlarda sanitariya sharoitlari yomon bo'lgan hududlarda uchraydi. Ushbu viruslar ovqat yoki ichimlik suvi orqali yuqtiriladi, shuning uchun ularga nisbatan profilaktik choratadbirlar ko'rish muhimdir. Boshqa tomondan, Gepatit B va C asosan qon orqali tarqaladi va ular ko'pincha xushmuomilalikning salbiy ta'siri sifatida tan olinadi.

Gepatit B va C viruslari global miqyosda ko'plab insonlarning so'g'lig'iga taqdid soladi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, gepatit B dunyo boylab 290 milliondan ortiq odamni tashkil qiladi, gepatit C esa 71 million odamni tashvishga soladi. Ushbu statistikalar gepatitni global sog'liqni saqlash muomosi sifatida etirof etishga undaydi. Gepatit turlari:

Gepatit A virusi.

Gepatit A virusi jigarni yalig'lantiradigan va odatda ovqat yoki ichimlik suvi orqali yuqadiga virusdir. Ushbu virusning infeksiyalangan shaxs bilan to'g'ridan-to'g'ri kontakt orqali ham yuqishi mumkin. Gepatit A virusi asosan yengil va o'z-o'zidan davolanishi mumkin, ammo ba'zi holatlarda jiddiy asoratlar rivojlanishi mumkin. Gepatit A ning oldini olishning eng samarali usuli emlashdir.

Gepatit B virusi.

Gepatit B virusi qon orqali, jinsiy aloqalar orqali yoki onadan bola tug'ilish jarayonida yuqishi mumkin. Bu virus jigarni jiddiy zararlashi mumkin va o'z vaqtida davolanmasa, jigar serrozi va jigar karatini rivojlantirishi mumkin. Gepatit B ning profilaktikasi uchun emlash mavjud va bu usul jahon miqyosida keng qollaniladi. Gepatit B bo'yicha kassalanganlar jiddiy davolanishi talab qilinadi, bu esa odatda antiviral preparatlar yordamida amalga oshiriladi. Gepatit C virusi asosan qon orali tarqaladi. Ushbu virusning klinik tasvirlanishi deyarli har doim yengil yoki simptomlarsiz bo'ladi, ammo uzoq mudatda jigar serrozi va jigar karatini

rivojlantirishga olib kelishi mumkin. Hozirda gepatit C uchun samarali antiviral davolash usullari mavjud.

Gepatit D virusi.

Gepatit D virusi faqat gepatit B bilan kassalangan shaxslarda rivojlanadi, chunki u B virusi yordamida tarqaladi. Gepatit uchun aniq davolash usullari mavjud emas, shuning uchun gepatit B ni oldini olishga e'tibor qaratish zarur.

Gepatit E virusi.

Gepatit E virusi gepatit A virusi bilan bir xil tarzda, ovqat yoki ichimlik suvi orqali tarqaladi. U asosan rivojlanayotgan davlatlarda keng tarqalgan bo'lib, Xomilador ayollarda jiddiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Hozirda gepatit E uchun emlash mavjud emas, lekin zamonaviy tibbiyot bu kasallikni oldini olish uchun kerakli profilaktika chora tadbirlarini ko'rish imkonini beradi.

Gepatitning davolash va diagnostikasi

Gepatitning tashxisi ko'plab diagnostik usullarni o'z ichiga oladi. Unga qon tahlili jigar funksiyasini baholash, ultratovush tekshiruvlari va boshqa tasvirlash tekshiruvlari kiradi. Virusli gepatitning aniq turlarini aniqlash uchun polimeraza zanjiri reaksiyasi kabi yuqori sezgir diagnostik usullar ishlatiladi.

Davolash bo'yicha yondashuvlar virus turiga va kasallik rivojlanish bosqichiga qarab farqlanadi. Masalan gepatit B va C uchun antiviral dorilar mavjud bo'lib ular virusning tarqalishini nazorat qilishi va jigarni himoya qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, gepatitning oldini olish uchun emlash, sanitariya va toza ichimlik suvi taminoti muhim o'rin tutadi.

Serroz sabablari;

1 Alkogol istemoli: uzoq muddat davomida ortiqcha alkogol iste'mol qilish jigarining shakaslanishiga olib kelishi mumkin

2 Virusli gepatit: Gepatit B va C kabi virusli infeksiyalar jigarni zararlashi va serrozga olib kelishi mumkin.

3 Avtoimmun kasalliklari: Autoimmun gepatitda jigarni tananing o'z immun tizimiga noto'g'ri hujum qiladi bu serrozga olib kelishi mumkin.

Serrozning asoratlari:

Qon aylanishi buzilishi: Serroz natijasida jigar orqali qon o'tishining buzilishiga olib keladi, bu esa portal gipertenziya (Qon bosimini oshishi) ni keltrib chiqaradi.

Jigar yetishmovchiligi: Jigar o'zinig asosiy funksiyalarini bajara olmaydi, bu esa organizimda toksinlarni to'planishiga, qon plazmasining yomonlashishiga olib keladi.

Ensefolopatiya: Jigarining toksinlarni tozalash qobiliyatini pasayishi miyaga zarar yetkazishi mumkin.

Serozning davolash usullari.

Dori-darmonlar: Serrozni davolashda dori-darmonlar, masalan, virusli gepatitni davolash yoki portal gipertenziya bilan kurashish uchun ishlatiladi.

Hayot tarzining o'zgarishi: Alkogolni to'xtatish, sog'lom ovqatlanish serrozning rivojlanishini oldini olishda muhim ro'l o'ynaydi.

Jigar transplantatsiyasi: Og'ir holatlarda serrozni bartaraf etishning yagona usuli jigarni transplantatsiya qilish.

Xulosa:

Gepatit dunyo miqyosida katta sog'liqni saqlash va ijtimoiy iqtisodiy muomoga aylangan. Viruslar orqali tarqaladigan bu kasalliklarning oldini olish uchun emlash, toza suv va sanitariya sharoitlarini yaxshilash, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish zarur. Shuningdek, gepatitni erta aniqlash va davolash uni murakkab asoratlardan himoya qilishda muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan jahon miqyosida gepatitning profilaktikasi va davolashga qaratilgan chora tadbirlarni kuchaytrish, tibbiyot sohasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish muhimdir

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Akbarov, M. M., & Ismoilov, B. A. (2021). Gepatologiya asoslari. Toshkent: "Abu Ali ibn Sino" nashriyoti.
- 2.Karimov, M. Sh. (2019). Ichki kasalliklar: Gepatologiya bo'limi. Toshkent: Yangi asr avlodi.